

ANTON PAVLOVICH CHEXOV – JAMIYAT DARDI SHIFOKORI. “GAROV” HIKOYASIDA INDIVIDUALLIK VA IJTIMOIIY TO‘SIQLAR

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Filologiya va tillarni o‘qitish (arab tili) yo‘nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy maslahatchi: A. To‘xtanazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus xalqining mashhur yozuvchisi, qisqa so‘zga olam mazmun singdira oluvchi ijodkor, jamiyat dardini asarlarida o‘ziga xos tarzda tasvirlay olgan adib Anton Pavlovich Chexov hayoti va ijod yo‘li haqida so‘z boradi. Shuningdek, yozuvchiga hikoyanavislik sohasida shuhrat keltirgan “Garov” asari mazmun-mohiyati hamda yozilish uslubi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: janr, pafos, fantaziya, individual xislatlar, ijtimoiy pillapoya, hikoyanavislik, proza, biografiya.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlar, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy majburiyatlar to‘qnashuvi har bir davrda adabiyot uchun dolzarb masala bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida bu muammolar rus adabiyotida alohida e‘tibor markaziga aylandi. Bu davrda ijod qilgan **Anton Pavlovich Chexov** o‘zining qisqa hajmli, ammo mazmun jihatidan chuqur hikoyalari orqali inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini tahlil qildi, jamiyatda mavjud bo‘lgan *axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy* to‘siqlarni ko‘rsatib berdi.

Chexovning “Garov” hikoyasi aynan shunday muammolarni yorituvchi asarlardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi. Unda insoniy qadriyatlarning iqtisodiy manfaatlar bilan to‘qnashuvi, shaxsiy erkinlikning jamiyat tamoyillari bilan ziddiyatga kirishi murakkab psixologik holatlar orqali aks ettiriladi. Asardagi obrazlar orqali **Chexov** nafaqat o‘z davr jamiyatini tanqid qiladi, balki o‘quvchini chuqur tafakkurga, insoniylik haqida qayta o‘ylashga undaydi.

“Hayot san’atkori” deya ulug‘langan mashhur rus yozuvchisi **Anton Pavlovich Chexov** o‘zining **25 yillik** adabiy faoliyati davomida **yuzdan ortiq** turli janrdagi asarlar, qisqa kulgili hikoyalar, jiddiy qissalar va sahna uchun pyesalar yaratgan. Uning asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan.

1860-yilda Rossiyaning **Taganrog** shahrida savdogar oilasida tavallud topgan **Chexovning** bolaligi faqat bugungi kunini o‘ylaydigan, hayotga faqat kun kechirish maqsadida yashaydigan insonlar muhitida o‘tadi. Otasi ro‘zg‘or tashvishi bilan band, onasi esa **olti** nafar farzandni tarbiyalash g‘ami bilan yashagan bu oilada **Anton** ham akalari singari sahar beshda uyg‘onib, uy va do‘kondagi yumushlarda yordam berardi. Oddiy qishloq ayoli bo‘lgan onasidan u zaiflarga yordam ko‘rsatish, odamlarni hurmat qilish,

odob va farosatning insoniy fazilatlar ichida alohida o‘rin tutishini o‘rgangan. **Chexov** tez-tez “*Men bolalik nima ekanini bilmaganman*”, deya aytib yurardi[2;51]. Uning yuragiga taskin beruvchi yagona narsa esa *kitoblar* va *teatr* edi.

Doimiy mutolaa va spektakllarni tomosha qilish orqali uning dunyoqarashi kengayib, o‘z fikrlarini yozma tarzda ifoda etishga kirishadi. Gimnaziya yillaridayoq dastlabki hikoya va qissalarni yozishni boshlaydi.

Bir kuni o‘z o‘quvchisining adabiyotga kuchli qiziqishini sezgan ustoz **Fyoder Pokrovskiy** unga “**Chexonte**” taxallusini asar so‘nggida yozishni tavsiya qiladi[3;89]. Shundan so‘ng u yozgan hikoyalarni turli jurnal tahririyatlariga yubora boshlaydi, biroq noshirlar uni tezda chop etishga rozi bo‘lavermaydi.

Otasi moliyaviy muammolar sababli barcha mulkini, jumladan, uyini ham sotishga majbur bo‘lib, oilasi bilan **Moskvaga** ko‘chib o‘tadi. **Anton** esa Taganrogda hech vaqosiz, yolg‘iz qoladi. Ammo u bo‘sh turmasdan, **repetitorlik** orqali kun ko‘radi. Chexovning tarjimai holi bilan tanishgan har qanday kishi, uning qisqa, ammo mazmunli umri adabiyot bilan yo‘g‘rilganini anglaydi.

1879-yilda Chexov hayotida katta burilish yuz beradi – u *Moskva universitetining tibbiyot fakultetiga* qabul qilinadi. Biroq u bu shaharda yashash va tirikchilik qilish oson bo‘lmasligini tezda anglaydi. Shu sababdan o‘zining qoralamalari evaziga topgan qalam haqi bilan kun kechira boshlaydi. U “**Bemori yo‘q shifokor**”, “**Akamning ukasi**”, “**Shiller Shekspirovich Gyote**”, “**Bir kimsa**” kabi **50 ga yaqin** nom ostida yozishda davom etadi [1;72]. “**Antosha Chexonte**” nomi bilan yozilgan hazil-mutoyibaga boy hikoyalari asta-sekin ommalashadi.

Moskvadagi “*Budilnik*”, “*Tomoshabin*” jurnallarida bosilgan asarlari, shuningdek, “*Peterburg gazetasi*” bilan hamkorligi natijasida **1885-yilda Chexov** kutilmagan mashhurlikka erishadi — u kichik hajmli hikoyalar muallifi sifatida tanila boshlaydi. Adib **Dmitriy Grigoryevich** unga o‘z salohiyatini befoyda sarflamaslikni, jiddiyroq asarlar yozishni maslahat beradi.

“*Yangi vaqt*” jurnalining noshiri, taniqli tanqidchi **Aleksey Suvorinning** bergan yaxshi gonorari evaziga Chexov ro‘zg‘orni o‘ylamay, “**Dushmanlar**”, “**Agafya**” va “**Dahshat**” nomli hikoyalarni yaratadi[4;90].

U moddiy jihatdan qiynalayotgan, kasali og‘ir bemorlardan haq olishni o‘ziga munosib deb bilmaydi. Adiblik bilan birga, *Imperator akademiyasining og‘zaki va yozma nafis adabiyot bo‘yicha faxriy a‘zosi* etib saylangan **Chexov** haqida gap borganda, ayrimlar uning shifokorlik faoliyati yozuvchilik iste‘dodiga xalaqit berganini ta’kidlashadi. Ammo, agar tibbiyot unga begona bo‘lganida, ehtimol, Chexov dardning asl mohiyatini tushunmagan, qahramonlarining ruhiy kechinmalarini tasvirlay olmagan va asarlari bugungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotardi.

Chexovda sil kasalligiga xos belgilar ilk bor **24** yoshida kuzatilgan[5;79]. Ayrim manbalarda bu dard unga bolaligida tashxis qo‘yilgan deyilgan bo‘lsa, boshqa manbalarda

esa u kasallikni qishloq shifokori bo'lib ishlagan paytda yuqtirib olgani, Saxalin oroliga safar qilganida esa holati og'irlashgani aytiladi. Qaysi taxmin to'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, Chexov o'z sog'lig'iga unchalik jiddiy yondashmagan — u oilasidagilarni xavotirga solmaslik uchun kasallik bilan bog'liq salbiy o'zgarishlarni yashirib yurgan. Vaqt o'tib esa holati og'irlashib, shifoxonaga yotishga majbur bo'ladi.

O'zini yaxshi his qilmasa-da, ijodiy ilhom bilan yashagan Chexov, shifokorlarning roziligini olib, uyga ketishga harakat qiladi. Hattoki, qon aralash yo'talini ham yashirib yuradi. Uning doimiy hamrohi bo'lgan kasallik va ichki iztirob asarlarida ham o'z aksini topadi. Bu holat ayniqsa, **“Noma'lum odam haqidagi hikoya”**da yaqqol ko'zga tashlanadi. **Chexov 1904-yili Badenvayler** shahrida **sil** kasalligi tufayli olamdan o'tadi.

Asl kasbi shifokor bo'lgan yozuvchi, bir tomondan insonlarning badanini davolagan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z asarlari orqali ruhlariga malham bo'la oldi. U avvalgi va zamondosh ijodkorlar qatorida roman yozmagan bo'lsa-da, qisqalikni ustun ko'rib, o'z asarlarida jamiyatdagi turli muammolar va odamlardagi oddiylikka, maishiylikka sho'ng'ib ketish holatini obrazlar orqali mahorat bilan yoritdi. **Chexov** har bir asarida odamlarni ruhiy uyqudan uyg'otishga intiladi. Uning ishonchiga ko'ra, insonlar inson bo'lishi bilangina jamiyat rivojlanadi.

Xususan, uning mashhur hikoyalaridan biri bo'lmish **“Garov”** asarida *bankir* bilan *yosh yurist* o'rtasidagi *o'lim jazosi* va *umrbod qamoq* borasidagi qarama-qarshi fikrlar tasvirlanadi. Mazkur hikoyada hayot mohiyati, yoshlik davrining qadri, moddiy boylikning haqiqiy ahamiyatiga urg'u beriladi. Hayot har doim go'zal bo'lib kelgan, ayniqsa, to'kis va ma'noli umr kechirish har bir insonning orzusidir. Bunday hayotga erishishda faqat cheksiz mol-mulkning o'zi kifoya emas. Minglab kitoblarni mutolaa qilish ham bu maqsadga yetaklamaydi, agar o'qilgan kitoblar amaliyotdan uzilgan bo'lsa. Asosiy jihat — anglash va tushunishdir. O'qilgan adabiyotlar inson hayoti va jamiyat bilan bog'lanib, uni komillik sari yetaklamog'i lozim. Shu nuqtai nazardan, hikoya davomida bankir doimo o'z boyliklarini yo'qotish tahdidi ostida qoladi. Axir, o'zi uchun ahamiyatsiz bo'lgan garov o'yini aslida nima maqsadda kerak edi?

Hikoya rivojiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, **“Garov”** asarida voqea bankir bilan yosh yuridik bilim egasi o'rtasidagi bahsdan boshlanadi. Bankir fikricha, inson uchun o'lim jazosi umrbod qamoqqa qaraganda yengilroq, deya baholaydi. Ammo yigit buning aksi — abadiy qamoq hayot umidining davomiyligini anglatadi, degan fikrda turadi. Shuning ortidan ular o'zaro bahsga kirishib, yigit **o'n besh yil** davomida yakka qamoqda yashashga rozi bo'ladi. Agar u bunga bardosh bera olsa, bankir unga **ikki million rubl** berishni va'da qiladi.

Yurist bankirning hovlisida joylashgan alohida joyda qat'iy nazorat ostida yashaydi. U xohlagancha kitob, musiqa asboblari, sharob va tamaki buyurtma qilishi mumkin, ammo og'zaki muloqot qilish man etilgan, inson tovushini eshitish ham taqiqlangan. U faqat yozma tarzda muloqot qilish huquqiga ega bo'ladi.

Ushbu **o‘n besh yillik** qamoq muddati turlicha bosqichlardan iborat bo‘ladi: **Birinchi bosqichda** – Yigit ruhiy tushkunlikka tushib qoladi, yakka qolish unga og‘ir botadi. **Keyingi davrda** – U juda ko‘p kitoblarni o‘qiydi, bir necha tillarni o‘rganadi. Jumladan, u bankirga yozgan xatida quyidagicha so‘zlarni bitadi: *“Aziz birodar! Sizga ushbu maktubni olti xorijiy tilda yozmoqdaman. Iltimos qilamanki, ularni tegishli mutaxassislariga ko‘rsating. Agar ular mening yozganlarimdan nuqson topa olmasalar, bog‘ingizda miltiqdan ikki marta o‘q uzib, bu holatni tasdiqlab qo‘yinglar. Demak, qilgan mehnatim bekor ketmagan bo‘ladi. Ilgari buyuk allomalar turli tillarda ijod qilgan bo‘lsalar-da, qalblarida yagona g‘oya bilan yashaganlar. Kamina ham o‘sha ulug‘ insonlarga yaqin turganimni his qilmoqda!”* Bankir ushbu xatga binoan bog‘ida miltiqdan ikki marta o‘q uzdiradi.

So‘nggi yillarda – Mahbus hayotning asl mohiyatini tushunib, nafs istaklaridan voz kechadi.

Hikoyaning avvalida bankirni bir savol qiynaydi. U savolga o‘zicha quyidagicha javob beradi: *“Bu ish tamomila bema‘nilikdan boshqa narsa emas. Menda bu — boy kishining bekorchilikdan chiqargan sarguzashti bo‘lsa, yigit uchun — pulga hirs qo‘yish, xolos...”* deb o‘zicha xulosa qiladi. Vaqt o‘tgan sayin bankirning moliyaviy ahvoli yomonlashadi, hatto qarzga botadi. Oqibatda, **ikki million rublini** saqlab qolish maqsadida mahbusni o‘ldirish rejasini tuzadi. *“Har qanday holatda ham yashash – o‘limdan afzal”* degan g‘oyani isbotlash uchun qamoq jazosiga rozi bo‘lgan huquqshunos nihoyat, o‘z hayotiga boshqacha nazar bilan qaraydi, uni baholaydi va o‘z qarashlarini qog‘ozga tushiradi. Bankir qamoqxonaga kirganida, charchagan va hushsiz yotgan mahbusning yonida aynan mana shu maktubni topadi. Maktubda yurist shunday deydi: *“Men hozir sizlardan har tomonlama ustunroqman...”* U dunyoviy boyliklarni vaqtinchalik deb biladi, baxtga erishish uchun faqat mol-dunyo yetarli emasligini tushunadi. Shu boisdan, puldan o‘z ixtiyori bilan voz kechib, garov shartlarini buzish uchun qamoqxonani qasddan tark etadi. Ushbu xat bankirga ham kuchli ta’sir qiladi, u o‘z xatti-harakatlaridan uyaladi.

A. P. Chexovning “Garov” hikoyasi hayot, erkinlik, kitob o‘qish, o‘z ustida ishlash, bilimning foydasi, ma’naviy yuksalish va boshqa muhim mavzular ustida fikr yuritishga undaydi. Aynan shu hikoya mazmuniga sharqona odob-axloq mezonlari nuqtai nazaridan qaralganda, **“ikki dunyo saodati”** degan tushuncha paydo bo‘ladi. Go‘yoki mahbus o‘zini tarbiyalab, ruhiy poklanishga erishgan. Ammo inson bu dunyo bilan cheklanib qolmasligi, shuningdek, u dunyo deb bu dunyodan yuz o‘girmasligi lozim. Hikoya shu muhim haqiqatga ham e’tibor qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, **Anton Pavlovich Chexovning “Garov”** hikoyasi insoniylik, erkinlik va jamiyat talablari o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni badiiy chuqurlik bilan aks ettirgan asarlardan biridir. **Chexov** bu hikoya orqali inson ruhiyatidagi nozikliklar, shaxsiy tanlov va axloqiy mas’uliyat muammolarini o‘rtaga tashlab, o‘quvchini zamon va makondan qat’i nazar doimo dolzarb bo‘lgan savollar ustida o‘ylashga chorlaydi. Asarda

pul, foyda va manfaat yoʻlida inson qadriyatlari qanday poymol etilishi, shaxsiylikning jamiyat tomonidan qanday cheklanilishi tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. <https://classicalintrovert.blogspot.com/2021/11/the-bet-discussion-analysis-and.html?m=1>
2. Sosnovskaja I. V., Romanicheva S. E. Vvedenie v metodikuobuchenija literature: uchebnoe posobie. – Moskva: Flinta: Nauka, 2012. – 202 s.
3. Л.Л. Дроботова, Т.В. Лыкова. Притчевый характер рассказа А.П. Чехова “Пари”. - Специальный выпуск № 2. Гуманитарные наукию
4. Проект по русской литературе. Становление личности в рассказе А.П. Чехова “Пари”.
5. Словарь современного русского литературного языка: в 17 т. М.; Л.: АН СССР, 1950-1965.